



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
GEOGRAFIYA KAFEDRASI**



O'ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI



**FARG'ONA VODIYSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
HUDUDIV JIHATLARI VA ISTIQBOLLARI**
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
ТУРИЗМА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ**
международная научно-практическая конференция

**TERRITORIAL ASPECTS AND PROSPECTS OF TOURISM
DEVELOPMENT IN THE FERGANA VALLEY**
international scientific-practical conference

**22-23 sentabr
Farg'ona - 2023**

Farg‘ona vodiysida turizmni rivojlantirishning hududiy jihatlari va istiqbollari,
Farg‘ona shahri, 2023-yil 22-23 sentabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
GEOGRAFIYA KAFEDRASI
O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI



**«FARG‘ONA VODIYSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
HUDUDiy JIHATLARI VA ISTIQBOLLARI»**
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

**«ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
ТУРИЗМА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ»**
материалы международной научно-практической конференции

**«TERRITORIAL ASPECTS AND PROSPECTS OF TOURISM
DEVELOPMENT IN THE FERGANA VALLEY»**
Materials of the International Scientific and Practical Conference

Farg‘ona shahri, 2023-yil 22-23 sentabr

UO‘K 338.483+485

Tahrir hay‘ati:

Ahmadaliyev Yu.I., g.f.d, professor; **Xoliqov R.Y.**, g.f.n., dotsent; **Abdug‘aniyev O.I.**, g.f.d., dotsent; **Pirnazarov R.T.**, g.f.n., dotsent; **Otaqulov P.S.**, g.f.f.d. (PhD), dotsent, **Abduvaliyev X.A.**, g.f.f.d. (PhD), dotsent, **Mahkamov E.G‘.**, g.f.f.d. (PhD), dotsent.

Farg‘ona vodiysida turizmni rivojlantirishning hududiy jihatlari va istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (Farg‘ona, 2023-yil 22-23 sentabr). –Farg‘ona, 2023. - 323 b.

To‘plamda Farg‘ona davlat universiteti geografiya kafedrasida 2023-yil 22-23-sentabr kunlari bo‘lib o‘tgan “Farg‘ona vodiysida turizmni rivojlantirishning hududiy jihatlari va istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy maqolalari chop etilgan. Konferensiya O‘zbekiston Geografiya jamiyati hamda Farg‘ona davlat universiteti bilan hamkorlikda o‘tkazildi. Ma‘ruzalar mavzulari turizmni shakllanishi va rivojlantirishga ta’sir etuvchi (tarixiy, tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, diniy-madaniy) omillarni tadqiq etishning nazariy masalalari, turizmning xalq xo‘jaligini rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati, Farg‘ona vodiysida hunarmandchilik, sog‘lomlashtirish, ekologik, agronomik, gastronomik va ziyorat turizmini rivojlantirishning geografik jihatlari, turistik obyektlarning nomlanish xususiyatlari, xaritalashtirishda GAT texnologiyalardan foydalanish, rekreatsiya va turizm sohasini rivojlantirishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni masalalarini qamrab olgan.

Mazkur to‘plam geograf-mutaxassislar, talabalar, magistrantlar, doktorantlar, o‘qituvchilar, shuningdek, Turizm geografiyasi faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalardagi ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

УДК 338.483+485

Редакционная коллегия:

Ахмадалиев Ю.И., д.г.н., профессор; **Халиков Р.Й.**, к.г.н., доцент; **Абдуганиев О.И.**, д.г.н., доцент; **Пирназаров Р.Т.**, к.г.н., доцент; **Отакулов П.С.**, д.ф.г.н. (PhD), доцент; **Абдувалиев Х.А.**, д.ф.г.н. (PhD), доцент; **Махкамов Э.Г.**, д.ф.г.н. (PhD), доцент.

«Территориальные аспекты и перспективы развития туризма в Ферганской долине» материалы Международной научно-практической конференции (Фергана, 22-23 сентябрь 2023 года). – Фергана, 2023. –323 с.

В сборнике опубликованы научные труды участников международной научно-практической конференции «Территориальные аспекты и перспективы развития туризма в Ферганской долине», состоявшейся 22-23 сентября 2023 года в Ферганской государственном университете. Конференция проводилась в сотрудничестве с Географическим обществом Узбекистана и Ферганским государственным университета. Темы докладов посвящены теоретическим вопросам исследования факторов, влияющих на формирование и развитие туризма (исторические, природные, экономико-социальные, политические, религиозно-культурные), роль и значение туризма в развитии народного хозяйства и занятости населения, географические аспекты развития ремесленного, оздоровительного, экологического, сельского, гастрономического и паломнического туризма в Ферганской долине, номенклатурные характеристики туристических объектов, использование ГИС-технологий в картографировании, роль образования и обучения в развитии рекреации и туризма.

Сборник статей предназначен для географов, студентов, магистрантов, докторантов, преподавателей, а также всех интересующихся проблемами туризма.

Авторы несут ответственность за достоверность и содержание научных данных в статьях, включенных в сборник.

8. Scott D., Lemieux C. Weather and Climate Information for Tourism. *Procedia Environmental Sciences*. 2010, pp. 146-183.
9. Ван Ш. Туристско-рекреационный потенциал как основа развития въездного туризма Китая // диссертации на соискание ученой степени кандидата географических наук. – Минск, 2018. – 122 с.
10. Кумова Н.А. Комплексная оценка туристско-рекреационного потенциала региона (на примере Курской области) // диссертации на соискание ученой степени кандидата географических наук. – Курск, 2004. – 165 с.
11. Кусков А.С. Туристское ресурсоведение. – Москва: Академия, 2008. — 207 с.
12. Рудникова Н.П. Комплексная оценка туристско-рекреационного потенциала региона (на примере Орловской области) // диссертации на соискание ученой степени кандидата географических наук. – Краснодар, 2005. – 203 с.
13. Староверкина Н.Н. Комплексная оценка туристско-рекреационного потенциала Республики Калмыкия // диссертации на соискание ученой степени кандидата географических наук. – Волгоград, 2007. – 155 с.
14. Фоменко Е.В. Оценка рекреационного потенциала города Краснодара // диссертации на соискание ученой степени кандидата географических наук. – Краснодар, 2007. – 189 с.
15. Шомуратова Н.Т. Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жихатлари // г.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент. 2012. -125 б.

Urazbayev A.K., Ibroimov Sh.I.*
(Chirchiq davlat pedagogika universiteti)

BO‘STONLIQ TUMANINI EKOTURISTIK RAYONLASHTIRISH VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING TABIIY GEOGRAFIK ASOSLARI

***Annotatsiya** Maqolada Bo‘stonliq tumanini ekoturistik rayonlashtirish va ularni rayonlashtirishning tabiiy geografik asoslari ilk bor kurib chiqiladi. Shu bilan birga ajratilgan har bir mikrorayonlarga ta‘rif beriladi. Bo‘stonliq tumnini yaxlit tabiiy-xo‘jalik tizimi deb qarash o‘z navbatida yanada kelajakda ekoturizmni rivojlantirish uchun tabiiy geografik asos yaratadi.*

***Аннотация** В статье впервые рассматривается экотуристское районирование Бостанликского района и физико-географические основы его районирования. При этом дается характеристику каждому микрорайону. Рассмотрение Бостанликского района как единой природно-хозяйственной системы, в свою очередь, создает физико-географическую основу для развития экотуризма в будущем.*

***Abstract** The article considers for the first time the ecotourism zoning of the Bostonlick area and the natural and geographical bases of its zoning. In this case, each microdistrict is defined. Considering the Bostonlick region as a single natural and economic system, in turn, creates a natural geographical basis for the development of ecotourism in the future.*

***Kalit so‘zlar:** tuman, ekoturizm, daryo havzalari, mikrorayonlar, tabiiy-xo‘jalik tizim, ekoturistik salohiyat.*

***Ключевые слова:** район, экотуризм, речные бассейны, микрорайоны, природно-хозяйственная система, экотуристский потенциал.*

***Keywords:** district, ecotourism, river basins, microdistricts, natural and economic system, ecotourism potential.*

Bo‘stonliq tumani tabiiy geografik jihatdan Toshkent viloyatining eng shimoli-sharqiy hududlarda joylashgan bo‘lib, o‘zining ekoturistik salohiyati bo‘yicha alohida ajralib turadi. Bo‘stonliq tumanining ekoturistik salohiyatining vujudga kelishida G‘arbiy Tyan-Shanning

* Urazbayev Abdukarim Kendirbaevich – Chirchiq davlat pedagogika universiteti geografiya kafedrasini professori, geografiya fanlari doktori, professor.

tog‘ tizmalari alohida rol uynaydi. I.A.Hasanov, P.N.G‘ulomovlarning (2007) ma‘lumotlariga ko‘ra, Bo‘stonliq tumani Chirchiq-Ohangaron tabiiy geografik rayoniga kirib, o‘zining tabiiy geografik sharoiti bo‘yicha yuqoridagi rayonning alohida kichik rayoni deb atash mumkin. Sh.A.Jo‘rayeva (2023) A.K.Urazbayev rahbarligida “Bo‘stonliq tumaniga umumiy tabiiy geografik tavsif va uning ekoturizm salohiyati” mavzusida magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Muallif o‘z ilmiy ishida Bo‘stonliq tumanini ekoturistik salohiyati bo‘yicha ilk bor ekoturistik mikrorayonlarga ajratdi: 1. Ugom daryosi havzasi mikrorayoni; 2. Chirchiq daryosi o‘ng sohili mikrorayoni; 3. Chorvoq suv ombori atrofi mikrorayoni; 4. Chirchiq daryosi chap sohili mikrorayoni; 5. Teraklisoy mikrorayoni; 6. Pskom daryosi havzasi mikrorayoni. Biz bu mikrorayonlashtirish tizimini ana shu hududlarning ekoturistik salohiyatini hisobga olgan holda qo‘yidagi ekoturistik rayonlashtirish sxemasini taklif etamiz. 1. Eng qulay ekoturistik salohiyat hududi. Bu hududga faqat Chorvoq suv ombori atrofi mikrorayoni kiradi. 2. Qulay ekoturistik salohiyat hududi. Biz bu hududga quyidagi mikrorayonlarni kiritamiz: Ugom daryosi havzasi mikrorayoni, Chirchiq daryosining o‘ng sohili mikrorayoni, Chirchiq daryosi chap sohili mikrorayoni. 3. Noqulay ekoturistik salohiyat hududi. Bu hududga Teraklisoy mikrorayoni, Pskom daryosi havzasi mikrorayolari kiradi. Bu joyda biz shuni eslatib o‘tishimiz lozimki, garchi Teraklisoy va Pskom daryosi havzasi mikrorayonlarning tabiiy geografik sharoiti ijobiy bo‘lsa ham, ammo u hududlarda turistik dam olish maskanlarini qurish juda ko‘p qiyinchiliklarni tug‘diradi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, ajratilgan mikrorayonlarni ekoturistik salohiyati bo‘yicha hududlarga ajratish, bir tomondan ana shu hududlarda ekoturizmni rivojlantirish uchun tabiiy geografik sharoitlari hisobga olingan bo‘lsa, ikkinich tomondan esa ana shu hududlarda dam olish maskanlarini qurishda tabiatning ba‘zi bir elementlari (relyef, tuproq, iqlimning mavsumiy o‘zgarishlari va boshqalar) qiyinchiliklar tug‘dirishi hisobga olinadi.

Endi biz ajratilgan ba‘zi bir mikrorayonlarda ekoturizmning rivojlantirishning tabiiy geografik asoslari haqida fikr yuritamiz. **Ugom daryosi mikrorayoni.** Ugom Bo‘stonliq tumanining asosiy daryosi hisoblanadi. Chirchiq daryosining o‘ng irmog‘i. Daryo havzasi shimoldan Talas Olatovi, g‘arbdan Qorjontov, sharqdan Ugom tog‘ tizmalari bilan chegaralangan. Bir necha buloq suvlarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Daryo uzunligi 68,5 km, xavzasining maydoni 870 km². Ugom Chorvoq suv omborining quyi to‘g‘onidan o‘tgach, Chirchiq daryosiga quyiladi. Asosan, qor va qisman yomg‘ir suvlaridan to‘yinadi. Daryoning o‘rtacha yillik suv sarfi 43 m³/sek.dan (ko‘p suvli yilda), 12 m³/sek.gacha (kam suvli yilda). To‘linsuv davri martda boshlanadi, eng ko‘p sutkalik suv sarfi aprel va iyunda bo‘lib o‘tadi va 177 m³/sek.dan (ko‘p suvli yilda) 54,5 m³/sek.gacha (kam suvli yilda) yetadi. To‘linsuv davri avgustda tugaydi. Daryo tez oqadi, o‘zanida ostonalar hosil qilgan. O‘rta oqimi vodiysida keng terrasalar, daraxtzor, butazor va o‘tloqlar mavjud. Geologiyasi yuqori to‘rtlamchi davr Mirzacho‘l kompleksining Qumoq, qumloq, qum, shag‘altosh; o‘rta to‘rtlamchi davr Toshkent kompleksi lyoss, qumoq, qumloq, qum, shag‘altosh; paleogen davrining qumtosh, gil, mergel, alevrolitlar, konglomeratlar, velit, dolomitlar, ohaktoshlardan iborat. Ugom daryosi havzasining tuproqlari jigar rang to‘q tusli bo‘z va Ugom daryosi quyi terrasalarida allyuvial-o‘tloq tuproqlari tarqalgan. O‘simliklari dastarbosh, oq gulxayri, qirqbog‘im kabi o‘t – o‘simliklar. Butalardan do‘lana, na‘matak kabilar o‘sadi. Tog‘larda tulki, bo‘rsiq, bo‘ri, sudralib yuruvchilardan ilon, kaltakesak, hasharotlardan chayon, ari, chumoli, o‘rgimchak, qushlardan burgut va kakliklar yashaydi. Daryo vodiysida Chorvoq qishlog‘i, dam olish uylari, bolalar oromgohlari joylashgan. Bundan tashqari Ugom daryosi mikrorayonida Xumson, Chinor qishloqlari mavjud bo‘lib bu yerga tashrif buyurgan ekoturistiklar daryo suvining oqim tezligini kuzatishi va sanatoriyalarda maroqli xordiq chiqarishi mumkin. **Chirchiq daryosini o‘ng sohili mikrorayoni.** Chirchiq daryosi qor-muzlarning erishidan to‘yinadi. Daryo suvi mart iyul oylarida ko‘payadi. Eng ko‘p suvi iyun oyida sarf bo‘ladi.

Qishda esa kamayib ketadi. Ba‘zan bahorda jala bo‘lib sel kelganda sekundiga 2161 m³/sek suv oqsa, qishda 22m³/sek suv o‘tkazadi xolos.

Chirchiq daryo (qadimgi nomi Parak, "Boburnoma"da Chir) deb nomlangan Sirdaryoning yirik o‘ng irmog‘i. Daryo havzasi janubiy va sharqda Qurama tizmasi va Chotqol tog‘ tizmalari, shimolida Talas Olatovi va uning g‘arbiy tarmoqlari bilan chegaralangan. G‘arbiy Tyanshan tog‘laridagi qor va muzliklardan Chotqol, Ko‘ksuv va Piskom daryolari boshlanadi. 1971-yil gacha Chirchiq daryosi Chorvoq soyligida Chatqol va Piskom daryolari qo‘shilishidan hosil bo‘lar edi. Endilikda daryo Chorvoq suv omboridan boshlanadi va Chinoz qishlog‘i yonida Sirdaryoga quyiladi. Uzunligi 154 km, havzasining maydoni 14240 km² [43]. Chirchiq daryosi tez oqadigan tipik tog‘ daryosi, tog‘li qismida chuqur, tor va nishab o‘zanda tez oqadi. Ugom daryosi qo‘shilgandan so‘ng Chirchiq daryosi vodiysi kengayadi. Chirchiq daryosiga bir necha irmoqlar kelib quyiladi. Eng yiriklari Ugom daryosi va Oqsoqotasoy. Qolgan mayda irmoqlari (Qizilsuv, v Sho‘robsoy, Ozodboshsoy, Oqtoshsoy, Tovoqsoy, Qorangko‘lsoy, Oltinbeksoy, va boshqalar)ning ba‘zilari yoz va kuz oylarida qurib qoladi. Vodiyning tekislik qismida daryoga birorta ham irmoq qo‘shilmaydi. Chirchiq daryosi qor va muzlik suvlaridan to‘yinadi. Suv sarfi Xo‘jakent qishlog‘i yaqinida 221 m³/sek., Chinoz qishlog‘i yonida 62 m³/sek. Eng ko‘p suv sarfi 2160 m³/sek. (1959-yil 8-aprel) va 1452 m³/sek. ga (1914-yil 14-may) yetgan. Bunday katta suv sarfi Chirchiq daryosi uchun xos emas. Eng kam suv sarfi 22m³/sek. bo‘lgan (1956-yil fevral). Chirchiq daryosi Sirdaryoga yiliga 164 m³/sek. suv quyadi. Suv oqimining 52,4% mart—iyun oylarida, 32,1% iyul—sentabr va qolgan 15,5% oktabr— fevral oylarida oqadi. Yanvar—fevral oylarida suvi kamayib, 52 m³/sek. dan oshmaydi. Chirchiq daryosida loyqa oqiziqalar kam. Tog‘lardan chiqib tekislik bo‘ylab oqqanda suvi ko‘plab irrigatsion tarmoqlar orqali sug‘orishga olinadi. Zaxariq, Bo‘zsuv, Qorasuv, Shimoliy Toshkent kabi kanallar Chirchiq daryosidan suv oladi. Daryodan gidroenergetikada ham keng foydalaniladi. Qodiriya, Tovoqsoy, Oqqovoq, Oqtepa, Salor va uchta Quyi Bo‘zsuv, Chorvoq (quvvati 600 ming kVtsoat, G‘azalkent) GESlar kaskadi shular jumlasidandir. Chirchiq daryosi suvi, asosan, Toshkent viloyati hududidagi ekin maydonlarini sug‘orishga sarflanadi (Chirchiq — Bo‘zsuv sistemasi O‘zbekiston hududida 100 ming gektardan ziyod yerni sug‘oradi), shuningdek, Toshkent, Chirchiq, Yangiyo‘l, G‘azalkent shaharlarini va ko‘p qishloqlarni suv bilan ta‘minlaydi[55]

Suvi tez oqadigan tipik tog‘ daryosi bo‘lib, tog‘li qismida chuqur, tor va nishab o‘zanda tez oqadi. Daryo atrofida hushmanzara joylarni tomosha qilish, quyosh taftida toblangan hamda musaffo tog‘ havosi bilan to‘yingan xushbo‘y maysalarni ko‘rish mumkin. Bu esa turistlarga ko‘taringi kayfiyat bag‘shlaydi. Ayniqsa, paraplan, deltaplanda sayohat qilish va daryo yonbag‘irlarida kemping qurib maroqli dam olish o‘zgacha taassurot qoldiradi. **Chorvoq suv ombori mikrorayoni.** Chorvoq suv ombori atrofi mikrorayoni shimol, shimoliy sharq va shimoliy g‘arbda Piskom daryosi havzasi mikrorayoni bilan janubda Chirchiq daryosining chap sohili va Teraklisoy mikrorayoni bilan, g‘arbda Ugom daryosi mikrorayoni bilan chegaradosh.

Chorvoq suv ombori — Chirchiq daryosining boshlanish qismida qurilgan (1963—70) gidrotexnika inshooti. Bir me‘yorda suv bilan ta‘minlash, toshqinlarning oldini olish va gidrotexnika maqsadlarida barpo etilgan. Daryo suvini mavsumiy tartibga soladi. Suv ombori Chatqol va Ugom toglari orasiga qurilgan. Tosh tuproqli to‘g‘oni uz. 768 m, balandligi 168 m, yuqori qismining eni 12 m. To‘g‘onda Chorvoq GESni suv bilan ta‘minlash uchun uz. 800 m va diametri 11 m bo‘lgan 2 ta tunnel bor. Chorvoq suv omborining to‘la sig‘imi 2006 mln. m³, shundan foydali suv hajmi 1580 mln. m³, suv yuzasi sathi 40,1 km², eni ayrim joylarda 10 km, uz. 19 km, maksimal chuq. 131 m, o‘rtacha chuq. 55 m. Suv omboriga Piskom, Ko‘ksuv, Chatqol daryolari quyiladi.

Suv oqimi ko‘payib, xatarli darajaga yetganda suvni chiqarib yuboradigan shaxtali (1200 m³/sek) va 2 ta pog‘onali (450 m³/sek va 500 m³/sek) suv tashlagichlar bilan jihozlangan.

Chorvoq suv ombori Chirchiq—Bo‘zsuv suvenergetika traktin bir me‘yorda suv bilan ta‘minlaydi. Uning barpo etilishi bilan suv kam bo‘lgan yillari Toshkent vohasidagi va Qozog‘iston Respublikasi Jan. Qozog‘iston viloyatidagi 355 ming ga dan ortiq yerni barqaror suv bilan ta‘minlash (shundan yangi o‘zlashtirilgan yerlar 150 ming ga), Chirchiq daryosining yuqori oqimida ro‘y beradigan suv toshqinlariga barham berish imkoniyatlari yaratildi.

2000 yil boshlaridan Chorvoq suv ombori sohillarida xalqaro andozalarga moye bo‘lgan yirik dam olish majmualari barpo etildi.

Suv ombori yoz faslida minglab turistlarni o‘z bag‘riga chorlaydi. Bu mavsumda mahalliy mehmonxonalar o‘z faoliyatini boshlaydi va turistlarga namunaviy xizmatlar ko‘rsatadi. Chimyon-Chorvoq dam olish zo‘nasi Chorvoq erkin turistik zonasida rekreatsion faoliyatini tashkil etishda yetakchilik qiladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda “dala hovli turizmi”, “dengiz turizmi” jadal o‘smoqda va bu holat bundan keyin ham davom etadi. **Chirchiq daryosining chap sohili.** Chirchiq daryosining chap irmoqlari Qoronqulsoy, G‘alvasoy, Oqsoqotasoy bo‘lib, ekoturizm nuqtayi nazardan daryo havzasi, landshaftlari xilma-xil va o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Buloqsuv, Oqqantaysoy, Achisoy, Ulkunaychisoy, Karabastau, Aksagasharik, Oqsoqotasoy, G‘alvasoy kabi xushmanzara soylar Chotqol tog‘ tizmalaridan boshlanib Chirchiq daryosiga quyiladi. Soylarning tabiati ko‘rkam xushmanzara bo‘lib, tashrif buyurgan turistlarni hayratlantiradi. Soylar vodiysi va o‘zani suvno tez singdiradigan jinslardan tashkil topgan aksariyat holarda vodiya toshloq maydonlarning ko‘pligi, o‘zanlarning shag‘al, qum va qumoq jinslardan iboratligi singgish jarayonini tezlashtiradi. Bu soylarda deltaplan, paraplan va trekking kabi sport turlarini rivojlantirish mumkin. Bu zonaga tashrif buyurgan turistlar ushbu sport turlari bilan shug‘ullanishlari bilan barobarida soy havzalarining xushmanzara tabiatini ko‘rishga muyassar bo‘ladi. Aytish joizki, deltaplan va paraplan orqali bu rayon hududidagi soylarni yuqoridan tomosha qilish turistlarga o‘zgacha zavq beradi. **Teraklisoy mikrorayoni.** Teraklisoy mikrorayoni Bo‘stonliq tumanning asosan tog‘li qismida joylashgandir. Tumanga tashrif buyuruvchi ekoturistlarni dam olishi uchun qulay bo‘lmagan maskandir. Sababi Teraklisoy hududi Chotqolning janubiy yonbag‘irlarida 1000-3247 m balandlikda, shimoliy yonbag‘irlarda 1200-3800 m balandlikda joylashgan. Teraklisoy hududidan janubda Chotqol biosfera qo‘riqxonasi Ugom Chotqol milliy bog‘ining janubida joylashgan. Hudud go‘zal landshafti, tog‘ tizmalarining archa o‘rmonlari haybatli alp tog‘lari va yam-yashil yaylovlar va shamolli dasht zo‘nalari bilan bezatilgandir. Tog‘ naqshlari go‘rlar va shovqinli sharsharalar bilan tabiat ajib bir manzarani hosil qiladi. Maydantolning janubiy qismida esa Teraksoy qirg‘og‘idagi Qorasuv tepaligi qoyalarida siz qadimgi g‘or rasmlarini Teraksoy qadimgi yozuvlarini ko‘rishingiz mumkin. Hududni tuproqlari 1000-1500 m balandlikda lyossimon tuproqlar undan yuqorida tog‘ o‘rmon va o‘tloqli tuproqlarning turli shakllari rivojlangan. Iqlimi kontenental. Yanvar oyining o‘rtacha harorati -7, iyul oyiniki 23-25, yong‘in miqdori 700-800 mmni tashkil qiladi.

Chotqol tog‘ tizmasi Teraklisoy qirg‘oqlaridagi qoyatoshlarga ishlangan Teraklisoy rasmlari oddiy chiziqlar, shakl ko‘rinishi, soya uslubida urib cho‘kichlab ishlangan. Odam, arxar, tog‘ echkisi, bo‘ri, ilon, g‘ildirak shaklidagi quyosh, o‘qyoy va boshqa buyumlar tasviri bor. Alohida yakka hamda ko‘p shaklli ov, raqs, diniy marosimlar ijrosi bilan bog‘liq manzaralar bilan tasvirlangan. Teraklisoy rasmlarining asosiy qismi miloddan avvalgi 1 ming yillikning ikkinchi yarmida yaratilgan. Aksariyati nafis hamda odam va hayvonlar a‘zolari bilan bir-biriga mutanosib qilib ishlangan. Teraklisoy rasmlari san‘at obidasi sifatida qad ko‘targan tog‘liklar hayoti, madaniyati, urf-odatlarini va boshqalarini o‘rganishda qimmatli manbadir va ekoturizm sohasida katta ahamiyat kasb etadi. **Piskom daryosi havzasi mikrorayoni.** Piskom daryosi uzunligi 120 km. Havzasining maydoni 2840 km bo‘lib to‘lin suv davri mart -iyul, kam suvli davri yanvar-fevral oylariga to‘g‘ri keladi. Piskom daryosini o‘ng irmoqlari Urungachsoy, Sijjaksoy, Xaramzodasoy chap irmoqlari Oqsarsoy, Alvastisoy, Mashtasgansoy to‘yinishi qor va muz suvlaridan to‘yinadi. Piskomning havzasi ancha baland (o‘rtacha balandligi 2645 m) bo‘lib unda umumiy maydoni 130 km²ga yaqin 140 dan ortiq

kichik muzliklar bor. Tog‘ muzliklari turizm uchun juda ahamiyatlidir. Asosan, tog‘ muzliklari qaytarilmas noyob jihatlarini, muzliklar tabiatining nodir tabiiy yodgorliklari turistlarga yana qiziqish uyg‘otadi. Turistlar muzliklar hosil qilgan relief shakllarini tomosha qilish bilan birgalikda marfologik genetik turlari haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar.

Piskom daryosi chuqur tog‘ vodiysida toshlar orasidan, serostona sharsharalar hosil qilib, terrasali keng vodiya oqadi. Bu esa turistlarning sershovqin soylarga tashrifi va suvlarning toshlarga urilib oqish tezligini kuzatish imkonini beradi. Ayniqsa, daryoning ekoturistik salohiyati juda yuqori bo‘lib, daryo yonbag‘irlaridagi tog‘ tizmalari, qir-adirlari, soylari, noyob hayvonot hamda o‘simlik dunyosi hech bir tabiat shaydosini befarq qoldirmaydi. Daryodagi yirik soylardan raftingda foydalanish va yuqoridan deltaplanda daryo suvining serjilo ko‘rinishini tomosha qilish turistlarga zavq beradi.

Xulosa qilib aytganda, Bo‘stonliq tumanini ekoturistik rayonlashtirish va ularni rivojlantirishning tabiiy geografik asoslari hozirgi vaqtda tabiiy va iqtisodiy geografiya bilimlarini har tomonlama hisobga olgan holda yaxlit geotizim deb qarashni bizlardan talab qiladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, Bo‘stonliq tumanida ekoturizmni rivojlantirish uchun bir tomondan tumanning tabiiy geografik sharoiti hisobga olinsa, ikkinchi jihatdan esa rayonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ham hisobga olish lozim, ya‘ni Bo‘stonliq tumanini yagona tabiiy-xo‘jalik tizimi deb qarash maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida ekoturistik salohiyatni har tomonlama rivojlantirish uchun asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хасанов И.А., Гуломов П.Н. / Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент 2007. 164 б.
2. Jo‘rayeva Sh.A. / Bo‘stonliq tumaniga umumiy tabiiy geografik tavsif va uning ekoturizm salohiyati. Magistrlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Chirchiq 2023. 90 b.

Хакимов К. М.*

(Жиззах давлат педагогика университети, Ўзбекистон)

**ТУРИЗМ ОБЪЕКТЛАРИНИНГ НОМИ ВА ЭТИМОЛОГИЯСИ ҲАҚИДА
О НАЗВАНИИ И ЭТИМОЛОГИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ
ON THE NAMES AND ETYMOLOGY OF TOURIST OBJECTS**

***Annotatsiya:** Maqolada turizm qamrovi va turklarini kўpайиши ҳамда, uning geografiyasini kengайиши туристик объектларнинг номлари ва уларда мужассамлашган ахборотларга эҳтиёжни кўпайиши сабаблари аниқ мисоллар ёрдамида ўрганилган. Шу билан бирга, сўнгги йилларда республикада туризм драйвер соҳалардан бири сифатида белгиланиб, зарур шароитлар яратилганлиги, ички ва ташқи туризмни ривожлантириши мақсадида соҳанинг ҳуқуқий-меъёрий асослари мустақамланаётганлиги таҳлил қилинган.*

***Аннотация:** В последние годы туризм определен как одна из ведущих отраслей экономики республики и для его развития созданы все необходимые условия, принято ряд законов, постановлений и указов, а также усилено нормативно-правовая база отрасли. В статье на конкретных примерах изучены причины увеличения масштабов и видов туризма, расширения его географии, увеличения потребности в названиях туристских объектов как достоверный источник информации.*

***Abstract:** In this article has been analyzed, what tourism has been defined as one of the driving sectors, the necessary conditions have been created, many laws, decisions and decrees have been adopted for its development, and has been constructed the legal and regulatory frameworks in recent years. The reasons for the increase in the scope and types of tourism, the expansion of its*

* Хакимов Кошкар Махкамovich - Жиззах давлат педагогика университети География ва иқтисодий билим асослари кафедраси ўқитувчиси, география фанлари номзоди.

| | |
|--|-----|
| Nazarov A.A., Abdurahmanov S.T., Rahimov A.A., Qoriev M.R. Farg‘ona vodiysida rekreatsiya resurslarining hozirgi holati va ulardan foydalanish imkoniyatlari. | 201 |
| O‘ktamova S.M. Shohimardonsoy daryo havza tabiatining ekoturistik imkoniyatlari. | 204 |
| Usmanov M.R. Jizzax viloyatida agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari. | 208 |
| Otaqulov P.S., Rustamova B., Rahmatullaeva S. “Turizm qishloqlari” va ularga qo‘yiladigan talablar. | 212 |
| Пирназаров Р., Ахмаджонова Ш. Шоҳимардонсой ҳавзасининг рекреацион-туристик имкониятлари. | 215 |
| Пирназаров Р., Усмонова С. Шоҳимардонсой ҳавзасида зиёрат туризмини ривожлантириш имкониятлари. | 223 |
| Raximov M.I. O‘rinova B.A. Agroturizm: shakllanish tarixi, geografik xususiyatlari va rivojlantirish istiqbollari. | 230 |
| Tўраев Қ.Т., Қурбонов Ш.Б., Федорко В.Н. Фарғона иқтисодий райони бўйлаб халқасимон зиёрат туристик маршрутни шакллантириш тажрибаси. . . | 233 |
| Турдибоева Ш.Х. Фарғона вилояти қадамжой ва зиёратгоҳларининг туризм ва рекреацияни ривожлантиришдаги ўрни. | 239 |
| Усмонов Б.А., Юсупов Д.Н. Амир Темур ва Темурийлар даврида Фарғона водийси аҳолисининг дам олиш масканлари ва маҳаллий туризм йўналишлари ҳақида. | 243 |
| Yusupov B.B. Ekologik turizmni rivojlanishida innovatsiyaning ahamiyati. | 247 |
| Xamidov A., Karimov A. Farg‘ona vodiysida olib borilgan biogeografik tadqiqotlarni ekoturizmga yo‘naltirilishi. | 251 |
| Қўзибоева О.М., Махкамов Ж.А. Қўқон шаҳрида туризмни ривожлантириш истиқболлари. | 255 |
| 4-Sho‘ba: TURISTIK OBYEKTLARNING NOMLANISH XUSUSIYATLARI, XARITALASHTIRISHDA GAT TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. | 258 |
| Аҳмадалиев Ю.И. «Мингтепа» археология меросининг номланиши ва туристик имкониятлари. | 258 |
| Ahmadaliyev Y., Madraximov A. Farg‘ona vodiysidagi qadamjoylar va ziyoratgohlarni turistik funksiyasini ochib berishda geografik nomlarning ahamiyati | 262 |
| Komilova N.K., Murtazayeva G.I. Turizm va sog‘lomlashtirish florasini bo‘yicha “Yashil” xaritalarini ishlab chiqish (Bo‘stonliq tumani misolida) | 265 |
| Krupochkin E.P., Mamajanov R.I., Tabakaeva E.M. Информационно-картографическое обеспечение туристской отрасли для устойчивого развития территорий. | 269 |
| Madraximov A.E. The significance of hydronym in using tourism-recreation opportunities of the area. | 275 |
| Миракмалов М.Т., Авезов М.М. Ўзбекистондаги айрим экотуристтик объектлар номларининг топонимик таҳлили. | 277 |
| Muxtoriddinov M.T. Turizmda axborot xavfsizligini ta‘minlash. | 282 |
| Otaqulov P.S. Geografik o‘lkashunoslik kurslarida turistik–rekreatsion obyektlar va ularning nomlanishi. | 284 |
| Tobirov O.Q. GAT texnologiyalaridan foydalangan holda Farg‘ona vodiysining iqlimiy ko‘rsatkichlarini turistik baholash. | 289 |
| Urazbayev A.K., Ibroimov Sh.I. Bo‘stonliq tumanini ekoturistik rayonlashtirish va ularni rivojlantirishning tabiiy geografik asoslari. | 293 |
| Хакимов К. М. Туризм объектларининг номи ва этимологияси ҳақида. | 297 |